



BAXSHICHILIK NAMUNALARINI TAHLIL QILISH ORQALI O'QUVCHILARDA MUSIQIY-NAZARIY BILIMLARINI MUSTAHKAMLASH

Matnazarova Barshinay Ongarbay qizi

*Ajiniyoz nomidagi NDPI Pedagogika-psixologiya va ijodiy ta'lim fakulteti Musiqqa ta'limi yo'nalishi
2-bosqich talabasi*

Annotatsiya: Ushbu ilmiy tezisdagi baxshichilik san'ati namunalari, xususan, Xorazm va qardosh dostonchilik maktablariga xos an'anaviy doston kuylari va baxshi termalari misolida maktab o'quvchilarining musiqiy-nazariy bilimlarini mustahkamlash usullari hamda pedagogik modellari tadqiq etilgan. Baxshichilik san'atida etalon cholg'u hisoblangan dutor ijrochiligi elementlarini zamonaviy musiqqa pedagogikasi prinsiplari bilan integratsiya qilish orqali o'quvchilarning g'arb nota tizimidagi murakkab nazariy tushunchalarni oson o'zlashtirish modeli ilmiy jihatdan tadqiq etilgan.

Kalit so'zlar: Baxshichilik, dutor ijrochiligi, doston kuylari, musiqiy-nazariy bilimlar, kuy tuzilishi, nota savodi, integratsiyalashgan ta'lim.

Musiqqa ta'limi tizimida o'quvchilarga musiqiy-nazariy tushunchalarni, jumladan, nota savodi, ritmik o'lchovlar va musiqiy shakllarni o'rgatish ko'p hollarda faqatgina Evropa klassik musiqasi namunalari yoki quruq sxematik qoidalar asosida olib boriladi. Bu esa o'quvchilarda milliy musiqqa muhitidan uzilish hamda mavhum nazariy qoidalarni idrok etishlarida qiyinchiliklarni keltirib chiqaradi.

Musiqqa pedagogikasining dolzarb muammolaridan biri esa o'quvchining ona tili, milliy tabiati va bolaligidan eshitib o'sgan xalqona musiqiy muhitiga mos keladigan materiallar orqali musiqiy savodxonlikni oshirishdan iboratdir.

Baxshichilik san'ati faqatgina og'zaki an'anadagi ijrochilik bo'lib qolmagan, o'zining ichki qonuniyatlariga ko'ra mukammal modal va metroritmik tuzilishga ega tizim hisoblanadi.

Xususan, Xorazm dostonchilik maktabida va qoraqalpoq jirov-baxshilarida dutor asosiy yetakchi cholg'u hisoblanib, u o'zining ipak torlari va mayin tembri bilan doston ohanglarini mukammal ifodalaydi. Baxshichilik maktablarining shakllanishi, ijro uslublari va dostonlar tarkibidagi she'riy hamda musiqiy qatlamlar o'zaro qat'iy qonuniyatlarga ega ekanligi ilmiy manbalarda isbotlangan.¹ Olib borilayotgan tadqiqotlarning maqsadi esa asosan dutor jo'rligidagi baxshi kuylarining ichki musiqiy tuzilishini tahlil qilish orqali, umumiy o'rta ta'lim maktablari o'quvchilarining notalashtirish, alteratsiya belgilari, xalq ladlari va kuy kompozitsiyasi bo'yicha nazariy bilimlarini mustahkamlashning pedagogik usullarini tizimlashtirish va ilmiy asoslashdan iboratdir.

Musiqiy-pedagogik tahlil, qiyosiy-tipologik o'rganish va eksperimental dars modellarini loyihalash metodlaridan foydalanish lozim. Bu metodologiya asosi va empirik material sifatida esa dutor ijrochiligi an'analari tayanadigan doston kuylari hamda ommabop baxshi termalari tanlab olinishi ahamiyatli. Pedagogik uslubiyat esa

¹ Jirmunskiy V.M, Zarifov H. T "O'zbek xalq qahramonlik eposi". - Moskva: Goslitizdat, 1947 (Qayta nashri 2015).



zamonaviy didaktik prinsiplarga tayangan holda hamda umumiy o'rta ta'lim maktablarining amaldagi o'quv dasturlarini tahlil qilish orqali shakllantiriladi². Ushbu metodikani uch bosqichli tahlil tizimiga asoslab olib boriladi:

Eshittirish va dekodlash, ya'ni dutor jo'rligidagi baxshi kuylarini audio yoki video formatida tinglash va uning ichki ritmik asosini qarsaklar yoki elementar harakatlar orqali aniqlash mumkin.

Notalashtirish va lad tahlilida garchi baxshichilik og'zaki an'anaga ega bo'lsada, dutor torlarida ijro etiladigan xarakterli kuylarni Evropa nota tizimiga ko'chirish va xalq lادلari bilan qiyoslash orqali doskada tahlil qilinadi.

Strukturaviy modellashtirish orqali esa dutor dastasidagi pardalar va kuy tarkibidagi eng kichik musiqiy frazalar, motivlar va davrlarni lingvistik matn bilan mutanosiblikda tahlil qilish samara beradi.

Dutor jo'rligidagi baxshichilik kuylarining aksariyati 2/4, 3/4 va murakkabroq, sinkopali ritmlarga boy bo'lgan 6/8 o'lchovlarida shakllanadi. O'quvchilarga sinkopa, triol va nuqtali notalarni o'rgatishda dutorning o'ng qo'l zarblari roliga e'tibor berish lozim. Dutor sozining ikki tori odatda kvarta yoki kvinta intervalida sozlanadi. Bu cholg'u orqali o'quvchilarga asosiy parda va unga nisbatan boshqa notalarning interval masofalari vizual eshitish orqali tushuntirilganda, o'quvchilarda nota koordinatalari tizimi aniq shakllanadi.

Dutorda pardalar joylashuvi chiziqli va qat'iy fiksatsiya qilinganligi sababli o'quvchi diatonik tovushqatorni dasta ustida vizual tarzda aniq ko'ra oladi hamda uni eshitish organlari orqali nazorat qila oladi. Baxshilarning dutor chertish jarayonidagi ritmik siljishlari esa o'quvchilarning dinamik tabiatini tushuntirishga xizmat qiladi. To'rt choraklik yoki olti sekstalik o'lchovni quruq matematik qoida orqali tushunishi qiyin bo'lgan o'quvchiga, baxshining dutor aytish ritmi orqali frazalarni taktlarga bo'lish orqali ko'rsatilganda o'zlashtirish samaradorligi yuqori bo'ladi.

Xulosa qilib shuni aytish joiz-ki, baxshichilik va dostonchilik namunalari, xuusan, dutor jo'rligidagi kuylar misolida maktab o'quvchilarining musiqiy-nazariy bilimlarini mustahkamlashda, ta'lim samaradorligini va o'quvchilarning milliy o'zlikni anglash darajasini tubdan yaxshilaydi. Kuy tuzilishini, jumla va musiqiy davrni baxshi kuylaridagi she'riy matn va dutor ohangi mutanosibligi misolida tushuntirish metodikasi pedagogik hamda psixologik jihatdan o'zini to'liq oqlaydi. Aytib o'tilgan integratsiyalashgan ta'lim modeli zamonaviy musiqa darsliklarining musiqiy-nazariy qismini metodik jihatdan boyitish, shu bilan birga o'quvchilarda amaliy ko'nikmalarni shakllantirish uchun fundamental ilmiy-metodik asos bo'lib xizmat qila oladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Jirmunskiy V.M, Zarifov H. T "O'zbek xalq qahramonlik eposi". - Moskva: Goslitizdat, 1947 (Qayta nashri 2015).
2. Yo'ldosheva S. "Musiqa o'qitish metodikasi va maktab repertuari". - Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot matbaa ijodiy uyi, 2021.

² Yo'ldosheva S. "Musiqa o'qitish metodikasi va maktab repertuari". - Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot matbaa ijodiy uyi, 2021.



3. Fitrat A. "O'zbek klassik musiqasi va uning tarixi". - Toshkent: Fan, 1993.
4. Panjiyev Q. "O'zbek xalq qo'shiqchiligi va baxshichilik san'ati muammolari. Ilmiy-metodik qo'llanma. - Toshkent, 2018.